O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI TATBIQ QILISH IMKONIYATLARIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR	862
<i>Absamatov Asqar Ergashovich</i>	
ALOQA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI ASOSIY YO'NALISHLARI	868
<i>Nazarov Sanjar Nasridinovich</i>	
RAQAMLI MEXANIZMLAR ASOSIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	873
<i>Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna</i>	
MAMLAKATIMIZ MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI	876
<i>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</i>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURLARIDAN FOYDALANISHNI MODELLASHTIRISH	880
<i>Qo'ziyoyev Behzod Hamidovich</i>	
BARQAROR SANOAT VA ESG INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	884
<i>Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li</i>	
ОТ ТРАДИЦИОННОГО ПОЛИВА К ТОЧНОМУ ОРОШЕНИЮ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДЫ В ХЛОПКОВОДСТВЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	890
<i>Rahimov Olim Xamitovich, Gulchexra Salimovna Narzullaeva</i>	
DIGITAL TECHNOLOGIES AS A KEY DRIVER OF SOCIO-ECONOMIC PROGRESS: A QUANTITATIVE ANALYSIS OF IMPACT TRANSMISSION MECHANISMS	898
<i>Bozorova Irina Jumanazarovna</i>	
RAQOBQT BARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MEHMONXONA INNOVATSIYALARINING STRATEGIK AHAMIYATI	904
<i>Usmanova Gulida Valiyevna</i>	
KO'CHMAS MULK QIYMATINI OMMAVIY BAHOLASH UCHUN KOB-B-DUGLAS GIBRID MODELINI QO'LLASH	910
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i>	
САНИТАРНО-ЗАЩИТНАЯ ЗОНА КАК ИНСТРУМЕНТ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ КРУПНОМАСШТАБНЫХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРОЕКТОВ (НА ПРИМЕРЕ ШЕРАБАДСКОЙ СОЛНЕЧНОЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН)	919
<i>Омандавлатов Сирожиддин Содикович</i>	
ZA HARLI CHIQINDILARNING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	924
<i>Ruziyeva Iroda Davutovna, Mavlonova Shaxnoza Raxmatovna</i>	



ZAHARLI CHIQINDILARNING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH

Ruziyeva Iroda Davutovna

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,
"Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish laboratoriyasi" mudiri

Mavlonova Shaxnoza Raxmatovna

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,
"Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish laboratoriyasi",
kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada sanoat, elektron va boshqa xavfli chiqindilarning atrof-muhit hamda inson salomatligiga ta'siri xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar asosida kompleks baholangan. Tadqiqot doirasida zaharli chiqindilarning havo, suv va tuproq muhitida tarqalish mexanizmlari, og'ir metallarning bioakkumulyatsiya jarayonlari, ularning ekotizimlarga ta'siri hamda inson salomatligi bilan bog'liq tibbiy oqibatlar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Grant, Fazzo, Zhang, Kumar, Li va boshqa olimlarning ilmiy ishlari asosida chiqindilarni boshqarish va kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: zaharli chiqindilar, elektron chiqindilar, bioakkumulyatsiya, ekologik xavfsizlik, inson salomatligi, aylana iqtisodiyot.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive assessment of the impact of industrial, electronic, and other hazardous wastes on the environment and human health based on international and national research studies. Within the scope of the study, the mechanisms of toxic waste dispersion in air, water, and soil environments, the processes of heavy metal bioaccumulation, their effects on ecosystems, and associated medical outcomes for human health were systematically analyzed.

Based on the scientific works of Grant, Fazzo, Zhang, Kumar, Li, and other researchers, practical recommendations for effective waste management and reduction were developed.

Keywords: toxic waste, electronic waste, bioaccumulation, environmental safety, human health, circular economy.

Аннотация. В данной научной статье на основе международных и национальных исследований проведена комплексная оценка воздействия промышленных, электронных и других опасных отходов на окружающую среду и здоровье человека. В рамках исследования системно проанализированы механизмы распространения токсичных отходов в воздушной, водной и почвенной средах, процессы биоаккумуляции тяжёлых металлов, их влияние на экосистемы, а также связанные с этим последствия для здоровья человека.

На основе научных работ Гранта, Фаззо, Чжана, Кумара, Ли и других исследователей разработаны практические рекомендации по управлению и сокращению отходов.

Ключевые слова: токсичные отходы, электронные отходы, биоаккумуляция, экологическая безопасность, здоровье человека, циркулярная экономика.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda sanoat, urbanizatsiya va texnologik jarayonlarning jadallashuvi natijasida zaharli chiqindilar hajmining keskin ortishi global ekologik muammolardan biriga aylangan. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi va elektron qurilmalardan foydalanish ko'lamining oshishi xavfli chiqindilar, jumladan elektron chiqindilar (e-waste) hajmining tez sur'atlarda ko'payishiga olib kelmoqda.



Xalqaro baholashlarga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili 50–55 mln tonnadan ortiq elektron chiqindilar hosil bo'ladi, ularning atigi 17–20 foizi qayta ishlanadi, qolgan qismi esa yetarli darajada qayta ishlanmagan holda atrof-muhitga tushib, ekologik xavf darajasini oshiradi [1,3].

Elektron chiqindilarni boshqarish ko'plab mamlakatlarda alohida yig'ish, saralash va qayta ishlash tizimlari orqali amalga oshirilmoqda, bu esa ularning salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hayot uchun I–IV xavfli sinfga mansub chiqindilar inson salomatligi va atrof-muhit uchun sezilarli xavf omili hisoblanadi. Mutaxassislar ularning eng yuqori darajada ta'sir ko'rsatadiganlarini I-toifaga kiritadi, chunki ular ekotizim va inson salomatligiga uzoq muddatli hamda jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi. Bular qatoriga uzoq vaqt parchalanmaydigan va tarkibida qo'rg'oshin, simob, talliy, plutoniy kabi elementlar mavjud bo'lgan birikmalar kiradi [21].

Nemis tadqiqotchilari E. Myuller va R. Vidmer ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada xavfli chiqindilar tarkibida asosiy ulushni ishlatilgan akkumulyatorlar (62 %), bo'yoq va lak materiallari (12 %), simob tarkibli chiqindilar (6 %), moy va moylash materiallari hamda moy filtrlari (5 %), tozalash va yuvuvchi vositalar qoldiqlari (4 %), pestisidlar (3 %) va boshqa kimyoviy moddalarning ulushi (1–2 %) tashkil etadi.

Xavfli maishiy chiqindilar hajmini taxminiy baholashda ularning umumiy qattiq maishiy chiqindilar tarkibidagi ulushi o'rtacha 0,1 % ni tashkil etishi qayd etiladi. Shu bilan birga, I–III xavf toifalariga kiruvchi simob va uning birikmalari, qo'rg'oshin va uning tuzlari, kadmiy, mishyak birikmalari, formaldegid hamda talliy tuzlari kabi moddalar chiqindilar poligonlariga tushadigan yuqori darajadagi toksik birikmalarning muhim manbalaridan biri hisoblanadi [21].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat chiqindilarining umumiy ekologik xavfdagi ulushi 40–45 %, elektron chiqindilarniki esa 25–30 % ni tashkil etadi [3,4]. Bu holat ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda "clean production" yondashuvi qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish imkoniyatlari yanada kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir [3,4].

Mazkur chiqindilar tarkibidagi qo'rg'oshin, simob va kadmiy kabi og'ir metallar havo, suv va ayniqsa tuproq muhitida uzoq muddat saqlanib qolish xususiyatiga ega bo'lib, yuqori bioakkumulyatsiya ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi [6,11]. Ushbu moddalar tabiiy muhitda uzoq vaqt davomida saqlanib, oziq-ovqat zanjiri orqali inson organizmiga o'tishi mumkin. Shu sababli ko'plab davlatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, ularning konsentratsiyasi davlat ekologik monitoring tizimlari orqali muntazam kuzatib borilmoqda. Natijada bu kabi toksik elementlarning inson salomatligiga ta'sirini kamaytirish bo'yicha samarali choralar ko'rilmogda [6,11].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar zaharli chiqindilarning ekologik va tibbiy oqibatlari ko'p qirrali hamda uzoq muddatli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bois zaharli chiqindilarning atrof-muhit komponentlariga (havo, suv, tuproq) tarqalish mexanizmlarini, bioakkumulyatsiya jarayonlarini hamda inson salomatligiga ta'sirini kompleks baholash, shuningdek ularni kamaytirish va boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda zaharli chiqindilarning atrof-muhit va inson salomatligiga ta'sirini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'un holda qo'llanildi.

Avvalo, xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida kontent-tahlil amalga oshirilib, zaharli chiqindilarning tarqalish mexanizmlari, bioakkumulyatsiya jarayonlari hamda sog'liqqa ta'siri o'rganildi. Shuningdek, statistik va komparativ tahlil usullari yordamida turli tadqiqot natijalari o'zaro solishtirildi.


Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida havo, suv va tuproq muhitidagi ifloslanish omillari hamda ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida chiqindilarni boshqarish va kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Grant va hammualliflar (2013) tomonidan o'tkazilgan tizimli sharh natijalariga ko'ra, elektron chiqindilar bilan bog'liq hududlarda yashovchi aholida qondagi qo'rg'oshin miqdori me'yoriy darajadan 2–3 baravar yuqori, siydikdagi kadmiy konsentratsiyasi esa 1,5–2 baravar ortgan, simobning bioakkumulyatsiyasi esa 60–70 % holatlarda aniqlangan [1]. Og'ir metallarning inson salomatligiga ta'siri ekologik xavf darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bunday omillarni nazorat qilish 2015-yil 15-iyulda qabul qilingan "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonun asosida amalga oshiriladi [1].

Fazzo va boshqalar (2017) tomonidan o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlarda zaharli chiqindilar joylashgan hududlarda onkologik kasalliklar xavfi 20–30 % ga yuqori, nafas olish tizimi kasalliklari 1,4–1,6 baravar ko'p hamda reproduktiv salomatlik bilan bog'liq holatlar 18–25 % darajasida kuzatilganligi ilmiy asoslangan [2]. Ekologik omillar bilan bog'liq kasalliklar ko'rsatkichlari ko'plab epidemiologik tadqiqotlarda qayd etilgan bo'lib, bunday holatlar sanitariya-epidemiologik kuzatuvlar orqali tizimli ravishda baholanadi. O'zbekistonda ekologik xavf darajasi yuqori hududlarda yashovchi aholi uchun tibbiy kuzatuv va profilaktik sog'liqni saqlash dasturlari amalga oshirilmoqda [2].

Jaishankar va hammualiflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar og'ir metallarning asab tizimi, buyrak va yurak-qon tomir tizimiga ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda ularning organizmga ta'sirini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi [11] (1-rasm).




1-rasm. Zaharli chiqindilarning Inson Salomatligiga ta'siri – (kasalliklar bo'yicha)

Zhang va Malik (2021) tadqiqotlariga ko'ra, sanoat chiqindilari bilan ifloslangan hududlarda tuproqdagi og'ir metallarning fon darajasi 3–5 baravar yuqori bo'lib, suv havzalarida ichimlik suvi me'yorlaridan oshish holatlari 40 % gacha yetishi aniqlangan [3].

Song va Li elektron chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarida og'ir metallarning tuproq va suv muhitiga intensiv tushishini ko'rsatgan [6]. Elektron chiqindilarni qayta ishlash jarayonida og'ir metallarning muhitga tushish ehtimoli mavjud bo'lib, qayta ishlash texnologiyalarida ekologik xavfsizlik talablariga rioya etilmagan holatlarda ikkilamchi ifloslanish ehtimoli ortishi mumkin [6].

Nriagu va Pacyna (1988) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda global miqyosda havo, suv va tuproq muhitining og'ir metallar bilan ifloslanishi miqdoriy jihatdan baholanib, sanoat chiqindilari ushbu jarayonning muhim manbalaridan biri ekani asoslab berilgan [10]. Shu bois ko'plab davlatlarda atrof-muhit monitoringi tizimlari joriy etilgan. O'zbekistonda ham atmosfera, suv va tuproq muhitining holati davlat ekologik monitoring tizimi orqali muntazam kuzatib boriladi [10] (2-rasm).



2- rasm: Atrof-muhit komponentlari bo'yicha zaharli chiqindilar ta'siri



Zaharli chiqindilar atmosfera muhitiga gazsimon va chang holatida, suv muhitiga sanoat oqava suvlari orqali, tuproq muhitiga esa chiqindi poligonlari hamda nazoratsiz tashlash holatlari natijasida tarqaladi [3,7]. Chiqindilarni noto'g'ri joylashtirish atrof-muhitning kompleks ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois chiqindi poligonlari faoliyati davlat ekologik nazorati asosida tartibga solinadi va monitoring qilinadi [3,7].

Tsydenova va Bengtsson elektron chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarida kimyoviy xavflarning yuqori darajada ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan [8]. Xavfli maishiy chiqindilar hajmini taxminiy baholash ularning umumiy qattiq maishiy chiqindilar tarkibidagi ulushi o'rtacha 0,1 % ni tashkil etishini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Zaharli chiqindilar turlari va ularning asosiy ta'sir yo'nalishlari

T/r	Chiqindi turi	Asosiy tarkib	Asosiy ta'sir muhiti	Asosiy ekologik oqibat
1.	Elektron chiqindilar	Pb, Hg, Cd	Tuproq, suv	Bioakkumulyatsiya
2.	Sanoat chiqindilari	Kimyoviy toksinlar	Havo, suv	Nafas olish kasalliklari
3.	Metallurgiya chiqindilari	Og'ir metallar	Tuproq	Tuproq degradatsiyasi

Kumar va hammualliflar (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida zamonaviy termik, kimyoviy va biologik tozalash texnologiyalarini qo'llash orqali toksik moddalar konsentratsiyasini 70–85 % gacha kamaytirish mumkinligi ilmiy asoslangan [4]. Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish ekologik xavfni kamaytirishning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Bunday texnologiyalar ko'plab mamlakatlarda chiqindilarni boshqarish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qo'llanilmoqda [4].

Li va uning hammualliflari innovatsion texnologiyalar ekologik xavf darajasini sezilarli darajada kamaytirishini ko'rsatgan [5]. Texnologik yechimlar chiqindilarni zararsizlantirish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois innovatsion texnologiyalarni joriy etish chiqindilarni boshqarish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi [5].

Mahalliy tadqiqotlarda Karimov A. va Usmonov B. sanoat chiqindilarini samarali boshqarish ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan [15].

Abdurashidova S. esa O'zbekiston sharoitida chiqindilarni qayta ishlash ulushini oshirish orqali ekologik zararlarni kamaytirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [20]. Umuman olganda, mahalliy ilmiy tadqiqotlar sanoat chiqindilarini oqilona boshqarish ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada sanoat, elektron va boshqa xavfli chiqindilarning atrof-muhit hamda inson salomatligiga ta'siri xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar asosida kompleks va tizimli ravishda baholandi. O'tkazilgan tahlillar zaharli chiqindilar ekologik xavfning muhim manbalaridan biri ekanini, ularning havo, suv va tuproq muhitida uzoq muddat saqlanishi hamda bioakkumulyatsiya jarayonlari orqali inson organizmiga kirib borishi muhim tibbiy va ekologik oqibatlarga olib kelishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari sanoat va elektron chiqindilar bilan bog'liq hududlarda onkologik, nafas olish va asab tizimi bilan bog'liq kasalliklar xavfi yuqoriligini tasdiqladi hamda bu holat xalqaro epidemiologik tadqiqotlar natijalari bilan uyg'un ekanini ko'rsatdi. Atrof-muhit komponentlari bo'yicha olib borilgan baholashlar sanoat chiqindilarining ayniqsa tuproq muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini hamda ekotizimlar barqarorligiga ta'sir etuvchi omillardan biri ekanini aniqladi.

Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarga tayangan holda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar zaharli chiqindilarni manba darajasida kamaytirish, ekologik monitoringni kuchaytirish, bioakkumulyatsiya jarayonlarini cheklash hamda zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan. Ushbu tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish ekologik xavfsizlikni oshirish, aholi salomatligini muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zaharli chiqindilar bilan bog'liq ekologik va sog'liqni saqlash masalalarini samarali hal etish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Avvalo, sanoat va elektron chiqindilarni hosil bo'lish bosqichidayoq kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ishlab chiqarish jarayonlarida kam chiqindili va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, korxonalarda chiqindilarni manba darajasida ajratib yig'ish hamda elektron chiqindilar uchun maxsus yig'ish punktlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv chiqindilar hajmini qisqartirish bilan birga ularni qayta ishlash samaradorligini oshiradi [4,6]. Respublikada chiqindilarni manba darajasida ajratib yig'ish tizimini rivojlantirish bo'yicha ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Sanoat hududlari atrofida ekologik monitoring tizimini yanada takomillashtirish zarur. Tuproq, yer osti va yer usti suvlari hamda atmosfera havosida og'ir metallarning konsentratsiyasini muntazam nazorat qilish, zamonaviy laboratoriya va geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish ifloslanish darajasini erta aniqlash va zarur choralarini tezkor ko'rish imkonini beradi [3,10]. Og'ir metallarning tabiiy muhitda uzoq muddat saqlanishi ularning ekologik ahamiyatini oshiradi. Shu bois ko'plab mamlakatlarda atrof-muhit monitoring tizimlari doimiy takomillashtirib borilmoqda [3,10].

Bioakkumulyatsiya jarayonlarini cheklash maqsadida ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni qo'llash tavsiya etiladi. Fitoremediatsiya va bioremediatsiya usullari ifloslangan tuproq va suv obyektlarida og'ir metallarning to'planishini kamaytirib, ekotizimlarning tabiiy tiklanishiga xizmat qiladi [11,19]. Ushbu usullar ekologik va iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi.

Xavfli chiqindilarni zararsizlantirishda zamonaviy qayta ishlash va neytrallashtirish texnologiyalarini keng joriy etish muhim hisoblanadi. Termik, kimyoviy va biologik tozalash usullarini integratsiyalashgan holda qo'llash toksik moddalar miqdorini 70–85 % gacha kamaytirish imkonini beradi [4,5]. Bu esa chiqindilarning atrof-muhitga ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Aholi va sanoat ishchilari salomatligini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratish zarur. Zaharli chiqindilar ta'siriga duch kelishi mumkin bo'lgan hududlarda yashovchi aholi uchun muntazam tibbiy ko'riklar o'tkazish, sanoat ishchilarini shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash hamda kasbiy kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik dasturlarni amalga oshirish muhimdir [1,2]. O'zbekistonda sanoat hududlarida ishlovchi xodimlar va aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha tegishli sanitariya va tibbiy nazorat tizimi mavjud.

Chiqindilar bilan bog'liq masalalarni uzoq muddatli istiqbolda samarali hal etishda aylana iqtisodiyot tamoyillarini sanoat va hududiy boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash va qayta foydalanish ekologik xavfsizlikni mustahkamlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi [3,4]. Shu bois ko'plab mamlakatlarda aylana iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda [20].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grant, K., Goldizen, F. C., Sly, P. D., et al. (2013). Health consequences of exposure to e-waste: A systematic review. *The Lancet Global Health*, 1(6), e350–e361.
2. Fazzo, L., Minichilli, F., Santoro, M., et al. (2017). Hazardous waste and health impact: A systematic review. *Epidemiology and Prevention*, 41(1), 1–12.
3. Zhang, Z., Malik, M. Z., Khan, A., et al. (2021). Environmental impacts of hazardous waste and management strategies to reconcile circular economy and eco-sustainability. *Science of the Total Environment*, 807, 150856.
4. Kumar, A., Agrawal, A., Singhal, S. (2023). A critical review on sustainable hazardous waste management: Treatment, regulations and policies. *Journal of Cleaner Production*, 382, 135167.
5. Li, Y., Chen, X., Wang, J., et al. (2024). Assessment of innovative technologies for hazardous waste treatment and remediation. *Environmental Technology & Innovation*, 33, 102297.
6. Song, Q., Li, J. (2014). Environmental effects of heavy metals derived from e-waste recycling activities: A systematic review. *Waste Management*, 34(12), 2587–2594.
7. Sepúlveda, A., Schluep, M., Renaud, F. G., et al. (2010). Environmental fate and effects of hazardous substances released from electrical and electronic equipment during recycling. *Environmental Impact Assessment Review*, 30, 28–41.
8. Tsydenova, O., Bengtsson, M. (2011). Chemical hazards associated with treatment of waste electrical and electronic equipment. *Waste Management*, 31, 45–58.
9. Forti, V., Baldé, C. P., Kuehr, R., Bel, G. (2020). The global e-waste monitor 2020. *Waste Management & Research*, 38, 3–5.
10. Nriagu, J. O., Pacyna, J. M. (1988). Quantitative assessment of worldwide contamination of air, water and soils by trace metals. *Nature*, 333, 134–139.
11. Jaishankar, M., Tseten, T., Anbalagan, N., et al. (2014). Toxicity, mechanism and health effects of heavy metals. *Interdisciplinary Toxicology*, 7(2), 60–72.
12. Alloway, B. J. (2013). Heavy metals in soils: Trace metals and metalloids in soils and their bioavailability. *Environmental Pollution*, 22, 1–10.
13. He, Z. L., Yang, X. E., Stoffella, P. J. (2005). Trace elements in agroecosystems and impacts on the environment. *Journal of Trace Elements in Medicine and Biology*, 19, 125–140.
14. Breivik, K., Armitage, J. M., Wania, F., et al. (2014). Tracking the global distribution of persistent organic pollutants. *Environmental Science & Technology*, 48, 873–885.
15. Karimov, A. A., Usmonov, B. B. (2020). Sanoat chiqindilarining ekologik xavfsizlikka ta'siri. *Ekologiya axborotnomasi*, 3, 45–50.
16. Ismoilova, D. R. (2021). Elektron chiqindilarni boshqarishning ekologik jihatlar. *Atrof-muhit muhofazasi*, 2, 32–38.
17. Rustamov, U. Sh. (2019). O'zbekiston sharoitida xavfli chiqindilar monitoringi. *Texnika fanlari axborotnomasi*, 4, 60–66.
18. Baxriddinova, N. M. (2024). Sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilarning atrof-muhitga ta'siri. *Railway Transport: Topical Issues and Innovations*, 2.



19. Alimuhamedov, S., Qodirova, N. (2018). Og'ir metallarning bioakkumulyatsiya xususiyatlari. Kimyo va ekologiya, 1, 21–27.
20. Abdurashidova, S. (2022). Chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlik. Nauchnye issledovaniya i innovatsii, 4.
21. Ruziyeva, I. D., Buriyev, S. S., Shakirov, N. (2024). O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarning atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosi, yer va suv resurslariga ta'sirini baholash. Monografiya, 65–67.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100